

XITOIY TILINI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHGA ASOSLANGAN INNOVATSION YONDASHUVLAR

Axrarov Baxtiyor Sagdullayevich

*O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston
e-mail: barsa1954@yandex.ru*

Lyu Shuy Mei

*O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston
e-mail: 172983547@qq.com*

Annotatsiya: *Maqolada bakalavriat ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga xitoy tilini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalardan foydalanishga asoslangan innovatsion yondashuvlar, ularni o'quv jarayonida qo'llash yo'nalishlari tahlil qilingan. Ushbu yo'nalishlar talabalarning motivatsiyasini oshirish, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga turli o'quv va kognitiv vazifalarni hal qilish jarayonida interfaol rejimni ta'minlash, topshiriqlarni bajarish natijalarini samarali monitoring qilish va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirilishiga olib kelishi ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *xitoy tilini o'qitish, sun'iy intellekt, innovatsion yondashuv, o'qitishda innovatsion texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar, o'qitishda onlayn xizmatlar.*

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ, ОСНОВАННЫЕ НА ИСПОЛЬЗОВАНИИ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ КИТАЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Ахраров Бахтиёр Сагдуллаевич

*Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент,
Узбекистан e-mail: barsa1954@yandex.ru*

Лью Шуй Меи

*Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент,
Узбекистан e-mail: 172983547@qq.com*

Аннотация: *В статье анализируются инновационные подходы, основанные на использовании технологий искусственного интеллекта в обучении китайскому языку студентов бакалавриата, а также направления их применения в образовательном процессе. Показано, что данные направления повышают мотивацию студентов, развивают навыки творческого мышления, обеспечивают интерактивный режим в процессе решения различных учебно-познавательных задач, расширяют возможности эффективного контроля и анализа результатов выполнения заданий.*

Ключевые слова: преподавание китайского языка, искусственный интеллект, инновационный подход, инновационные технологии в обучении, цифровые технологии, мобильные приложения, онлайн-сервисы в обучении.

INNOVATIVE APPROACHES BASED ON THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN TEACHING THE CHINESE LANGUAGE

Akhrarov Bakhtiyor Sagdullaevich

Uzbek State University of World Languages, Tashkent, Uzbekistan
e-mail: barsa1954@yandex.ru

Liu Xue Mei

Uzbek State University of World Languages, Tashkent, Uzbekistan
e-mail: 172983547@qq.com

Abstract: *This article analyzes innovative approaches based on the use of artificial intelligence technologies in teaching Chinese to undergraduate students, as well as their applications in the educational process. It is shown that these areas increase students' motivation, develop creative thinking skills, provide an interactive mode in the process of solving various educational and cognitive tasks, expand the possibilities of effective control and analysis of the results of completing tasks.*

Key words: *teaching Chinese, artificial intelligence, innovative approach, innovative technologies in teaching, digital technologies, mobile applications, online services in teaching.*

So'nggi paytlarda jahonda xitoy tilini o'qitishga va o'qitish metodikasi muammolarini nazariy jihatdan tushunishga bo'lgan qiziqishlar tobora ortib borishi kuzatilmoqda. Shubhasiz, bu o'rganish eng qiyin tillardan biridir. XXI asr inson hayotining deyarli barcha sohalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot infratuzilmasiga bog'liq bo'lgan raqamli texnologiyalar asri, raqamli davr deb nomlanmoqda. Ushbu holat ta'lim sohasiga ham taalluqli. Yangi hayotiy voqeliklar raqamli texnologiyalardan foydalanishga innovatsion yondashuvlar asosida o'qitishning mazmuni va metodlarini modernizatsiya qilish zarurligini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 31 dekabrda 849-son "Yoshlarni IT sohasiga jalb qilish, ularning raqamli bilim va ko'nikmalarini oshirish orqali yuqori daromadli kasblarga yo'naltirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bilan «Besh million sun'iy intellekt yetakchilari» loyihasini amalga oshirish tartibi belgilandi [1]. Ushbu hujjatdagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish, xususan xitoy tilini o'qitish jarayonini tashkil etishda ta'limda yangi axborot va sun'iy intellekt texnologiyalari vositalarini joriy etish bilan bog'liq innovatsion yondashuvlarni talab etadi.

Sun'iy intellekt hozirda jadal rivojlanayotgan innovatsion texnologiyalar sohasi bo'lib, unda sun'iy intellekt tushunchasi mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunmasdan va adekvat talqin qilmasdan ilmiy-tadqiqotlarni olib borish mushkul.

Sun'iy intellekt tushunchasi 1956 yilda Dartmut kollejida (Gannover, Nyu-Xempshir shtati, AQSh) "Sun'iy intellekt bo'yicha yozgi tadqiqot loyihasi" nomli konferensiyada birinchi marta ishlatilgan bo'lib, unda ushbu tushunchaga Jon Makkarti tomonidan "aqli mashinalarni yaratish fani va texnologiyasi" sifatida ta'rif berildi. J.Makkarti fikricha, sun'iy intellekt - bu aqli mashinalarni, ayniqsa aqli kompyuter dasturlarini yaratish bo'yicha fan va muhandislik yo'nalishi [2].

Sun'iy intellekt texnologiyalari - aqli kompyuter tizimlarini ya'ni, an'anaviy ravishda inson ongi bilan bog'laydigan imkoniyatlarga ega bo'lgan - tilni tushunish, o'rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish va boshqa shu kabi tizimlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan informatika sohasi [3, 3 b.].

Ta'lim sohasida sun'iy intellekt individuallashtirilgan ta'lim olish, intellektual o'qitish va boshqalar uchun yangi imkoniyatlarni ochadi [4, 10 b.]. Uning qo'llanilishi nafaqat davlat va jamoat tashkilotlarining boshqaruvi va xizmat ko'rsatish darajasini yaxshilaydi, balki fuqarolarga yanada qulay va farovon hayot tajribasini ham taqdim etadi.

Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar turli shart-sharoitlar, jumladan, raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Raqamli texnologiyalar - bu raqamli ma'lumotlar va kompyuter tizimlaridan foydalanishga asoslangan usullar, jarayonlar va vositalar to'plami. Ular elektron qurilmalar va dasturiy ta'minot yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash, uzatish va tahlil qilish imkonini beradi.

Xorijiy tillarini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. O'qituvchilar til o'rganish natijalarini yaxshilash uchun ikkala jihatni ham ko'rib chiqishlari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishlari kerak, shu bilan birga sun'iy intellektga asoslangan va insonga asoslangan o'qitish usullari o'rtasida tegishli muvozanatni ta'minlashlari kerak [5]. Til o'rganishda sun'iy intellektni rivojlantirishning kelajakdagi tendensiyalari istiqbolli bo'lib, keyingi tadqiqotlar va innovatsiyalar o'qituvchilarga ushbu texnologiyalardan yaxshiroq foydalanishga yordam beradi.

Xitoy tilini o'qitishda raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan innovatsion yondashuvlar deganda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun interfaollikni, masofadan bilim olishni va mobillikni ta'minlaydigan ChatBotlar, kompyuter dasturlari, onlayn-trenajyorlar, mobil ilovalar, Internet resurslaridan foydalanishni tushunamiz. Bunda darslikning imkoniyatlarini to'ldiradigan ko'plab dasturlar, mobil ilovalar, Internetdagi raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish nazarda tutiladi. Ta'kidlash joizki, zamonaviy raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish talabalarga nafaqat ma'lum bilim va fan ko'nikmalarini, balki zarur axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha kompetensiyalarini ham rivojlantirish imkonini beradi.

Xitoy tilini o'rganish bilan bog'liq to'rtta asosiy ko'nikma mavjud: nutqni idrok etish va tushunish (tinglash), o'qish va tushunish, yozma shakldagi nutqni idrok etish va tushunish (o'qish), o'z fikrlarini yozma ravishda ifoda etish qobiliyati (yozish) va o'z

fikrlarini og'zaki ifoda etish qobiliyati (gapirish). Sun'iy intellekt shuningdek, muloqot qobiliyatlarini yaxshilashi mumkin. Ko'pgina sun'iy intellektga asoslangan ilovalar nutqni aniqlash texnologiyalarini o'z ichiga oladi, bu esa tinglab, tushunish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi. Sun'iy intellekt talaffuzni yaxshilash, xatoliklarni aniqlash va xorijiy tilda so'zlashuvchi mahalliy aholining nutqini tinglash va ularni taqqoslashda yordam beradi.

Nutqni aniqlash texnologiyasi xitoy tilini o'rganishda talabalarining muloqot ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ushbu texnologiya talabalarga talaffuz va intonatsiya bo'yicha darhol fikr-mulohaza yuritish imkonini beradi, bu esa ularning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tabiiy tillarni qayta ishlash texnologiyasi (NLP - Natural Language Processing) - bu kompyuterlar va inson tili o'rtasidagi o'zaro ta'sirga qaratilgan sun'iy intellekt sohasi. U talabalarga o'rganayotgan tilni yaxshiroq tushunishga yordam berish uchun xorijiy tillarini o'qitishda keng qo'llaniladi [6].

NLP texnologiyasining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u talabalarga individuallashtirilgan o'quv materiallarini taqdim eta oladi. NLP dasturi talabaning turli til sohalaridagi faoliyatini tahlil qilish orqali talabaning o'ziga xos ehtiyojlarini qondiradigan moslashtirilgan o'quv materiallarini yaratishi mumkin. Masalan, agar talaba so'z boyligi bilan qiynalayotgan bo'lsa, dastur ularga mashq qilish uchun so'zlar ro'yxatini taqdim etishi mumkin.

Mashqlarni taklif qiladigan va ularning to'g'ri bajarilishini nazorat qiladigan, ya'ni yuqoridagi barcha 4 ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradigan sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan ilovalar ko'lami kengayib bormoqda.

Chatbot (inglizcha chatterbot so'zidan olingan) - matn yoki ovozli harakatlar orqali inson suhbatiga taqlid qilish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot yoki veb-interfeys [7]. Chatbot texnologiyasi - bu matnli yoki ovozli xabarlar orqali inson muloqotini simulyatsiya qiluvchi dasturiy yechim. Ushbu texnologiya xorijiy til vakili bilan muloqot qilish o'rniga ishlatilishi mumkin.

Chatbot texnologiyasi talabalarining xitoy tili bo'yicha ko'nikmalarini oshirishning innovatsion va samarali usuli hisoblanadi. Talabalar uchun zarur bo'lgan interaktivlik va moslashuvchanlikdan mahrum bo'lishi mumkin bo'lgan an'anaviy til o'rganish usullaridan farqli o'laroq, chatbotlar individuallashtirilgan va interaktiv o'rganish tajribasini taqdim etadi.

Katta til modellari (LLM) shaxsiy til o'qituvchilari sifatida ulkan salohiyatga ega bo'lib, ovozli muloqot, yozma muloqot, individuallashtirilgan mashqlar, lug'at ro'yxatlari va jumalarni tahrirlashni taklif etadilar. Biroq, ular til o'rganish texnologiyasida sezilarli yutuqni ifodalasa-da, ularning imkoniyatlari hali ham o'sib bormoqda.

Chat GPT dastlabki katta til modellaridan biri sifatida xitoy tilini o'rganish uchun o'zining juda tabiiy ovozlari bilan chuqur tajribani taqdim etadi (<https://openai.com/ruru/index/chatgpt/>). Biroq, ovozlar haqiqiylik jihatidan ustun bo'lsa-da, ilovaning tuzilishi foydalanuvchi tashabbusiga bog'liq. Ilovaning sun'iy intellektida og'zaki xitoy tilini tushunishda mohir bo'lishiga qaramay, o'z nutq tempini sozlash imkoniyati yo'q, bu

esa ba'zi foydalanuvchilar uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Umuman olganda, ilova noyob va dinamik til o'rganish tajribasini taqdim etadi.

Microsoft Copilot ovozli faollashtirilgan xitoy tilini o'rganish uchun istiqbolli, ilova hisoblanadi (<https://copilot.microsoft.com/>). Ovozning o'zi yoqimli va jozibali, ammo hozirgi cheklovlar haqiqiy suhbatga xalaqit berishi mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyasidagi tezkor yutuqlar hisobga olinsa, kelajakda Copilotning og'zaki xitoy tilini tushunish va unga javob berish qobiliyati sezilarli darajada yaxshilanishini kutish mumkin.

Google kompaniyasining Gemini ilovasi hozirda ovozli suhbatlar ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmasa-da, u boshqa LLMlar singari yozma o'rganish uchun qimmatli vositalarni taklif etadi (<https://gemini.google.com/>). Masalan, talabalar grammatika va aniqlik bo'yicha fikr-mulohazalar uchun uy vazifalarini yuklashlari yoki so'z boyligini mashq qilish uchun mashqlarga oid so'rovlar berishlari mumkin.

Til o'rganish uchun sun'iy intellektga asoslangan yangi chatbot ilovalari ko'lami oshib bormoqda. Bunday ilovalar an'anaviy usullardan tashqariga chiqib, interaktiv suhbatlar orqali tizimli o'rganishni taklif qilmoqdalar. Ilovani tanlashda, aniq, yoqimli ovozga ega va ona tili bo'lmagan xitoy tilini tushunish qobiliyatiga ega bo'lganlarga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqdir.

Tutor Lily sun'iy intellektga asoslangan yangi chatbot hozirda til o'rganish ilovalarining eng yaxshilaridan biri hisoblanadi (<https://tutorlily.com/>). Ba'zi sum'iy intellekt repetitorlaridan farqli o'laroq, Tutor Lily yoqimli va jozibali ovozga ega bo'lib, o'rganishni qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Uning o'ziga xos xususiyati – til o'rganishni boshlovchi talabalar uchun foydali bo'lgan nutq ovozining tempini sozlash imkoniyatidir. U tizimli o'rganishda ustunlik qiladi, aniq suhbat mavzularini taqdim etadi va foydalanuvchi javoblari bo'yicha darhol yozma fikr-mulohazalarni taqdim etadi. Bulardan tashqari, Tutor Lily foydalanuvchining og'zaki xitoy tilida gapirgan nutqini tushunadi, bu tabiiy va interaktiv o'rganish tajribasini ta'minlaydi. Tutor Lily o'zining strukturaviy va aqlli fikr-mulohazalarining uyg'unligi bilan xitoy tilini o'zlashtirish uchun kuchli vosita sifatida ajralib turadi.

Univerbal o'zining suhbat chatboti orqali til o'rganishga tizimli yondashuvni qo'llab-quvvatlaydii (<https://www.univerbal.app/?ref=aitoolnet.com>). Ushbu ilova shuningdek, foydalanuvchining xitoy tilida so'zlashishi jarayonida real vaqt rejimida tuzatishlar kiritadi va unga darhol fikr-mulohaza bildiradi. Ilovada hayotiy - bozorda savdolashishni yoki uzoq parvozda o'rindiqdosh bilan suhbatlashish kabi mavzular bo'yicha muloqot qilish mumkin.

Interfaol topshiriqlarning turli xil shakllari o'quvchilarning aqliy faolligini oshirish va diqqatini o'rganilayotgan materiallarga qaratish imkonini beradi. Ushbu onlayn xizmatning o'ziga xos jihatlari dars davomida o'rganilayotgan mavzuga oid bilimlarning dolzarbligini yoritish va o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish bosqichlarini, shuningdek, darsdan tashqari o'quv faoliyatlarini amalga oshirish bosqichlarini tashkil etish imkoniyatlarida namoyon bo'ladi.

Xitoy tili akademiyasi (Академия китайского языка - <https://chinese-msk.ru/>) - Xitoy madaniyati, tarixi va an'analarning noyob olamiga sho'ng'ish imkonini beradigan original video kurslarni taqdim etadi.

Xitoy tilini o'qitishda mobil qurilmalarda o'rnatilgan mobil ilovalar o'qituvchi va talabalarning haqiqiy yordamchilariga aylanadi. Bunday ilovalar bilan ishlashning eng qiziqarli imkoniyatlarini ajratib o'tamiz:

HelloChinese (<https://www.hellochinese.cc/>)

(<https://play.google.com/store/apps/details?id=ru.appkode.rulearn.en>).

Xitoy tilini o'rganishni boshlovchilar uchun juda oddiy va samarali mobil ilova. HelloChinese ilovasida mashg'ulotlar o'yin formatida o'tkaziladi. Talabalar murakkab xitoycha talaffuz va ohanglarni o'zlashtirish uchun o'rnatilgan nutqni aniqlash funksiyasidan, shuningdek, xitoycha iyerogliflarni yozishni mashq qilish uchun ilovaning qo'l yozuvi interfeysidan foydalanishlari mumkin. Ushbu mobil ilovadan xitoy tilini o'qitish uchun to'laqonli vosita sifatida darslarda va darsdan tashqari vaqtlarda foydalanish mumkin.

Du Chinese

(<https://play.google.com/store/apps/details?id=org.sinamon.duchinese>).

Turli qiyinchilik darajasidagi matnlarni o'qishni mashq qilish uchun ajoyib ilova. Barcha matnlar xitoy tilida so'zlashuvchilar tomonidan o'qib eshittiriladi. Xitoy tilini o'rganishni boshlovchilar asosiy lug'atga ega bo'lgan juda oddiy matnlardan boshlanadi, xitoy tilini o'rta darajada o'zlashtirgan foydalanuvchilar uchun matnli hikoyalar grammatikaga ko'proq e'tibor qaratilgan holda uzunroq. Ilg'or foydalanuvchilar uchun ilova klassik xitoycha matnlarni o'z ichiga oladi,

Trainchinese

(<https://www.trainchinese.com/v2/viewApps.php?rAp=0&tcLanguage=ru>).

Xitoy tilidagi iyerogliflarni yodlash va eslab qolish ko'nikmalarii rivojlantiruvchi mashhur ilovalardan biri. Ushbu ilovada foydalanuvchi lug'at va misollar bilan har bir so'zning gaplardagi namunasini topishi mumkin. Oddiy lug'atlardan asosiy farqi - bu turli xil o'rganish rejimlarida kartali topshiriqlar yaratish, shuningdek, tayyor mashqlar to'plamidan foydalanish imkonini beradi.

Har xil imlo qoidalari va grammatikaga oid bilimlarni mustahkamlash uchun onlayn-trenajyorlardan foydalanish mumkin. Misol tariqasida bugungi kunda deyarli eng ommabop bo'lgan onlayn-servis xizmatlardan biri ChineseClass101 (<https://www.chineseclass101.com/>) bo'lib, unda xitoy tilini o'rganishga bag'ishlangan turli darajadagi darslar taklif etiladi. Bepul versiyasida xitoy tilini o'rganishni boshlovchilar uchun oddiydan murakkabgacha tamoyiliga asoslangan turli xil darslar mavjud. Oyiga 3,50\$ bilan boshlanadigan tarif rejalari bo'yicha obunalarning keng doirasi mavjud. Premium versiyada oyiga 25\$ to'lov evaziga barcha mavjud darslar va PDF formatida yuklab olinadigan materiallardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, unda Android mobil operatsion tizimi bilan ishlovchi qurilmalar uchun mobil ilova ham taqdim etiladi. Ayniqsa, yo'lda bo'lgan talabalar va eshitish qobiliyatini rivojlantirish istagidagi foydalanuvchilar uchun mos keladi. Xitoy tili bilan allaqachon

tanish bo'lganlar uchun esa platforma tinglash qobiliyatini yaxshilash uchun ajoyib vosita hisoblanadi.

Shunday qilib, raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalaridan innovatsion yondashuv asosida foydalanish quyidagilar uchun eng samarali hisoblanadi: interfaol rejimni turli xil o'quv-didaktik masalalarini yechishda, mashqlarni bajarishda qo'llash; talabalarining aqliy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish; mashqlarni bajarish natijalarini samarali nazorat qilish va tahlil qilish; talabalarining xitoy tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 31 dekabrda 849-son "Yoshlarni IT sohasiga jalb qilish, ularning raqamli bilim va ko'nikmalarini oshirish orqali yuqori daromadli kasblarga yo'naltirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.01.2026 й., 09/26/849/0002-сон // <https://lex.uz/ru/pdfs/-7963118>.
2. McCarthy, John. (2007) What is Artificial Intelligence? Available at: <http://jmc.stanford.edu/articles/whatisai/whatisai.pdf>.
3. The handbook of artificial intelligence. Vol. 1. Avron Barr and Edward Feigenbaum, William Kaufman, Inc., Los Altos, Calif., 1981, 409 pp, ISBN 0-86576-005-5.
4. Сергеев Н. Е. Применение искусственного интеллекта в образовании: проблемы и перспективы // Информатика и образование. – 2020. – №. 4 (313). – 10 с.
5. TIAN Zhen, PENG Yajing. The latest development of computer-assisted language learning in the context of artificial intelligence (2011-2021) [J]. Foreign Language World, 2022(03):53-60.
6. Liang M C. (2021) Exploring corpus linguistics research in the era of big data. Foreign Languages in China, 18(01):13-14. DOI:10.13564/j.cnki.issn.1672-9382.2021.01.008.
7. Vikipediya. Erkin ensiklopediya // <https://uz.wikipedia.org/wiki/Chatbot>.